



KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIK, INVESTITSIYA VA EKSPORT BO‘YICHA ISHLARNING BORISHI TAHLIL QILINDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 26-sentabr kuni hududlarda paxta hosili yig‘imi, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati, investitsiya va eksport ko‘rsatkichlari ijrosi hamda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar tahlili yuzasidan kengaytirilgan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda hududlar kesimida paxta yig‘imi sur‘atlari va mavjud muammolar atroficha ko‘rib chiqildi.

Bu yil 875 ming gektar maydonga chigit ekilib, 3,7 million tonna hosil uchun shartnomalar tuzilgan. Terim jarayonlariga 900 dan ortiq mashina jalb etildi, fermerlarga yoqilg‘i va o‘g‘it arzonlashtirilgan tartibda berildi.

Shu bilan birga, ayrim hududlarda rejadani orqada qolish holatlari kuzatilmoqda. Masalan, Surxondaryo, Xorazm, Farg‘ona va Andijon viloyatlari yaxshi natija ko‘rsatayotgan bo‘lsa, Samarqand, Sirdaryo va Navoiyda holat qoniqarsiz.

Prezidentimiz qisqa vaqt ichida joylarda favqulodda shtablar tuzib, hosilni sifatli yig‘ib olish, fermerlarni o‘ylantirayotgan masalalarni tezkor hal etib borish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Mas‘ullarga terilgan paxta uchun hisob-kitoblarni o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash topshirildi.

Yig‘ilishda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati ham ko‘rib chiqildi.

Respublika bo‘yicha 640 ta maktab va bog‘chadan 125 tasida ta‘mirlash ishlari hali yakunlanmagan. 9,8 ming ko‘p qavatli uyning qariyb mingtasi tayyor emas. Jizzax va Surxondaryodagi qozonxonalar ta‘miri ham oxirigacha yetkazilmagan.

Davlatimiz rahbari ikki hafta ichida bu masalalarni hal etish, nimtansiya, elektr va

suv tarmoqlarini mavsumga shay holatga keltirish zarurligini qayd etdi.

Shuningdek, bugungi kunda aholiga 55 ming tonna, shundan 381 ta olis qishloq va ovullarga 9 ming tonna mahalliy ko‘mir yetkazib berilgan. Aholiga omborlardagi 27 ming tonna tarqatilmay qolgan ko‘mimi hamda kuz-qish mavsumida iste‘molchilarga 330 ming tonna suyuqlashtirilgan gazni to‘liq yetkazish topshirildi. Gaz va elektr ta‘minotida uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun mutasaddilar shaxsan javobgar ekani ko‘rsatib o‘tildi.

“Yashil makon” dasturining ijrosi muhokama qilinayotgan ekan, bu yil bahorda ekilgan 137 million ko‘chatning 27,5 millioni qurib qolgan tanqid qilindi. Sababi — bahor va yoz o‘rtasida issiq kunlar tez kelib qolishi oqibatida ekilgan ko‘chatlar unishga ulgurmayapti, ularga odatdagidan 2-3 barobar ko‘p suv sarflashga to‘g‘ri kelmoqda.

Shu munosabat bilan daraxtni kuzda ekishni ko‘paytirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Bu yilgi kuz mavsumida 125 million tup daraxt va buta, bahorda yana 75 millionta ekish rejalashtirildi. Bunda sug‘orish tizimi va imkoniyati yo‘q joylarga ko‘chat ekmaslik talab qilib qo‘yildi.

Urbanizatsiya jarayoni tezlashib borayotgan shaharlar va viloyat markazlarida yashillik darajasini oshirishni

taqozo etmoqda. Shaharlarni “yashil” standartlarga muvofiq ilmiy asosda rivojlantirish maqsadida olimlar, urbanistlar va ekologlar ishtirokida Toshkent va Nukus shaharlari, barcha viloyat markazlarining “yashil” master rejalari ishlab chiqilishi belgilandi.

Joriy yil uchinchi choragi yakuni bilan mamlakatimizga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi 33,5 milliard dollarga yetishi kutilmoqda. Yanvar-avgust oylarida eksport 23 milliard dollarni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 31 foizga ko‘paydi.

Lekin investitsiya o‘sishi barcha hududlarda ham birdek emas. Ayrim hududlarda esa eksport ko‘rsatkichlari pasaygan. Prezident mutasaddilardan yil yakunigacha 7,3 milliard dollar qo‘shimcha eksportni ta‘minlash, sarmoyalarni jalb qilish va yangi bozorlarga chiqish bo‘yicha aniq choralar ko‘rishni talab qildi.

AQSH shtatlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishi belgilandi. Har bir viloyat muayyan shtat bilan hamkorlik o‘rnatib, mahalliy tadbirkorlar va xorijiy sheriklar o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni kengaytirishga ko‘maklashish zarurligi qayd etildi.

Yig‘ilish yakunida Prezident barcha yo‘nalishlarda belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va to‘liq bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

MINTAQAVIY VA GLOBAL XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHDA POYDEVOR

O‘zbekiston so‘nggi yillarda BMT faoliyatining barcha sohasida faol ishtirok etmoqda. Bugun 160 ta qo‘shma dastur va loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Birgalikda global kun tartibiga oid yirik xalqaro anjumanlar, jumladan, oziq-ovqat xavfsizligi, turizmni rivojlantirish, kambag‘allik va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish hamda bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlar o‘tkazilmoqda.



Uyg‘oq fikr

2018-2025-yillarda mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi. Markaziy Osiyoda hamkorlikni ta‘minlash, Orol dengizi hududini himoya qilish, turizmni rivojlantirish, ekologik muammolarni hal qilish kabi dolzarb masalalarga bag‘ishlangan rezolyutsiyalar shular jumlasidan.

Shuningdek, O‘zbekiston ushbu nufuzli tashkilotning eng yuqori minbarida, xususan, Bosh Assambleyaning 72-, 75-, 76- va 78-sessiyalarida jahon kun tartibidagi dolzarb masalalarga dunyo e‘tiborini qaratib, ular bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surib kelmoqda.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON DUNYODAGI IJOBIY O‘ZGARISHLARGA HISSA QO‘SHISHGA TAYYOR



XXI asr insoniyat oldiga murakkab sinovlarni qo‘ymoqda. Global muammolar tobora jiddiylashib, ularga barham berish uchun davlatlardan yakdillik, mas‘uliyatli hamkorlik va oqilona qarorlar qabul qilishni talab etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, geosiyosiy qarama-qarshiliklar, terrorizm, migratsiya, oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalar nafaqat mamlakatlar, balki butun insoniyat kelajagiga tahdid solmoqda. Bunday sharoitda har bir davlatning xalqaro munosabatlardagi pozitsiyasi, tashabbuslari nafaqat o‘zi, balki mintaqaviy va global barqarorlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu jihatdan qaralganda, O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqi nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaq va jahon siyosiy maydoni uchun dolzarb ahamiyatga ega bo‘ldi. Zero, nutqda global hamkorlik, tinchlikparvar siyosat, inson qadr-qimmat, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratilib, xalqaro hamjamiyatni bu borada amaliy hamkorlikka chaqiradigan qat‘iy va aniq takliflar ilgari surildi.

Jumladan, ECOSOC va UNCTAD shafeligida Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy taraqqiyoti masalalariga bag‘ishlangan xalqaro forum o‘tkazish taklif etildi. Ushbu xalqaro forum mintaqaning iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini oshirishga xizmat qiladi. Ya‘ni, avvalo, mintaqaning global iqtisodiy jarayonlarga faolroq integratsiyalashuvi, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsion muhitni yaxshilash va barqaror taraqqiyot modellari joriy etishga zamin yaratadi. Mazkur nufuzli xalqaro tashkilotlarning forumida ishtirok etishi muammolarning yechimi uchun zarur siyosiy va moliyaviy tayanchni shakllantiradi.

Davomi 2-betda

Nuqtayi nazar

Prezidentimizning AQSHga tashrifi va BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasidagi nutqi mamlakatimiz obro‘-e‘tibori yanada ortgani va davlatimiz tashqi siyosati yangi bosqichga ko‘tarilganini yaqqol namoyon qildi. Ushbu tashrif O‘zbekiston uchun xalqaro maydonda yangi sahifa ochdi, ko‘plab natijalarga erishish imkonini berdi.

ENG YIRIK XARID

AVIAKOMPANIYAMIZ SALOHIYATINI SEZILARLI DARAJADA OSHIRADI



Davlatimiz rahbari jahonda kechayotgan ziddiyatli geosiyosiy voqealar, xalqaro institutlar ta‘siri pasayishi va tengsizlik o‘sib borishi sharoitida tizimli yangilanish hamda qo‘shma sa‘y-harakatlar zarurligini ta‘kidladi. Yuksak minbarda ilgari surilgan tashabbuslar O‘zbekistonning ko‘plab mamlakatlar, ayniqsa, AQSH bilan munosabatlarida ham o‘zaro ishonch va pragmatik sheriklik uchun mustahkam asos yaratayotir.

Nutqda BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va tarkibini kengaytirish

taklif etildi. Markaziy Osiyoda tinchlik va hamijhatlik muhitini shakllantirish bo‘yicha oxirgi sakkiz yilda qo‘lga kiritilgan yutuqlar — ochiq chegaralar, hal etilgan nizolar va integratsiya platformalari bu — tashabbusning amaliy poydevori ekanini ko‘rsatadi. O‘zaro savdo, investitsiya va logistika hajmining bir necha barobar o‘sgani mintaqaviy sheriklikning tuzilmaviy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

Davomi 2-betda

Albatta o‘qing!



(“SO‘Z XUSUSIDA SO‘Z” KITOBIDAN)

6

Davomi 5-betda

Kamolot pillapoyasida

EL-YURT UMIDI JAMG‘ARMASI

MILLATNING INTELLEKTUAL QIYOFASI

BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida AQSHga amalga oshirilgan navbatdagi tashrif yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev, o‘n anaga ko‘ra, ayni vaqtda u yerda istiqomat qilayotgan bir guruh vatandoshlarimiz bilan uchrashuv o‘tkazdi. Amerikada mehnat qilayotgan va tahsil olayotgan yurtodshlarimiz davlatimiz rahbarini katta quvonch bilan kutib oldi. Suhbat rasmiy tartibdan yiroq, samimiy va ishonchli muloqot shaklida kechdi.



Uchrashuv mobaynida yangi O‘zbekistondagi islohotlar, ularni amalga oshirish jarayonida vatandoshlar ishtiroki va hamkorlik imkoniyatlari haqida fikr almashildi. Davlatimiz rahbari, ayniqsa, “El-yurt umidi” stipendiatlariga alohida to‘xtalib, AQSHda ularning soni 500 nafardan oshganini, bu avlod yurtimiz uchun eng qimmatli intellektual xazina sifatida qaralayotganini ta‘kidladi. Shu bilan birga, davlatimiz yoshlarning tashabbuslariga hamisha ochiqligi, ularni qo‘llab-quvvatlashga tayyor turishi qayd etildi.

O‘z navbatida, uchrashuv ishtirokchilari O‘zbekiston yetakchisiga xorijdagi vatandoshlar va yoshlarga ko‘rsatilayotgan e‘tibor, ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlar uchun minnatdorlik bildirib, vatanimiz ravnaqiga yanada ko‘proq hissa qo‘shish yo‘lida harakat va mehnatdan to‘xtamasligini izhor qildi.

O‘ZBEKISTON DUNYODAGI IJOBIY O‘ZGARISHLARGA HISSA QO‘SHISHGA TAYYOR

Boshlanishi 1-betda

Forum o‘tkazilishi natijasida mintaqada yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, sanoat klasterlari va logistika markazlarini tashkil etish, savdo qonunchiligini muvofiqlashtirish, sarmoyani himoya qilish mexanizmlarini yaratish, raqamli iqtisodiyot va innovatsiya sohalarida hamkorlikni rivojlantirishga keng sharoit yaratiladi.

UNIDO bilan sanoatda “yashil” texnologiyalar mintaqaviy xabini tashkil etish, mintaqamizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, “yashil” makon barpo etish hamda demografik barqarorlikka erishish dasturlarini qabul qilish bo‘yicha ilgari surilgan taklif ham ushbu yo‘nalishlarda Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan muhim tashabbuslardandir. Sanoatda “yashil” texnologiyalar xabini tashkil etish orqali mintaqada ekologik toza va resurstejamkor ishlab chiqarish jarayonlari keng joriy etiladi. Bu esa energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish, atmosfera zararli moddalar chiqarilishini cheklash bilan birga yangi ish o‘rinlari yaratish va investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu orqali mintaqada “yashil iqtisodiyot” sari bosqichma-bosqich o‘tish imkoni yuzaga keladi.

Suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tashabbuslar esa transchegaraviy suv masalalarini barqaror va konstruktiv yechimlar asosida hal etishga xizmat qilib, qishloq xo‘jaligida suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantiradi. Bu, o‘z navbatida, qurg‘ochilik xavfini kamaytirish, aholini ichimlik suv bilan ta‘minlash darajasini oshirish hamda ekotizimlarni muhofaza qilishga imkon yaratadi.

“Yashil” makon barpo etish bo‘yicha amalga oshiriladigan dasturlar shahar va qishloq hududlarda ekologik barqaror muhit yaratish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, ko‘kalamzorlashtirish va bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo‘yicha muhim qadamlar bo‘ladi. Bu orqali nafaqat aholining hayot sifati oshiradi, balki ekologik xavf-xatarlar ham kamayishiga erishiladi.

Bosh Assambleyaning Markaziy Osiyo mamlakatlarining mintaqaviy sheriklik va



Odiljon MAMATKARIMOV,
Oliy Majlis Senati
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari

iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishga qaratilgan harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga doir rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi mintaq uchun strategik ahamiyatga ega. BMT Bosh Assambleyasi kabi nufuzli xalqaro tashkilot tomonidan bunday rezolyutsiya qabul qilinishi mintaqaviy hamkorlikka berilayotgan siyosiy va huquqiy qo‘llab-quvvatlashning muhim belgisidir. Rezolyutsiya Markaziy Osiyo davlatlarining ichki va tashqi siyosatini muvofiqlashtirish, o‘zaro ishonch va muloqotni mustahkamlash, turli sohalardagi hamkorlikni tizimli rivojlantirish, qolaversa, mintaqamizning global miqyosdagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz global va mintaqaviy xavfsizlik xususida fikr bildirib, Afg‘oniston, G‘azo sektoridagi keskin siyosiy vaziyat va Ukrainadagi jarayonlarga ham e‘tibor qaratdi.

Afg‘on xalqining tinch va osuda hayotga intilishiga munosabat bildirilishi, bu borada xalqaro hamjamiyatning harakatlarini birlashtirish zarurligi alohida ta‘kidlanishi bejiz emas. Afg‘onistonning yakkalanib qolishi, uning xalqaro maydondan uzilishi xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Chunki bunday holat ekstremizm, terrorizm va noqonuniy iqtisodiy faoliyat uchun muhit yaratib berishi ehtimoldan xoli emas.

Shu nuqtayi nazardan, Afg‘oniston orqali xalqaro transport va energetika yo‘laklarini rivojlantirish bo‘yicha maxsus rezolyutsiya qabul qilish taklifi bu mamlakatni mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarga integratsiya qilish, infratuzilmaviy uyg‘unlikni ta‘minlash hamda barqarorlikka erishishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Bu kabi tashabbuslar Afg‘onistonning istiqbolli rivojlanish yo‘lini ishlab chiqish va ijobiy natijalarga erishishga real sharoit yaratadi.

G‘azo sektorida tobora keskinlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozga e‘tibor qaratilishi insonparvarlik va xalqaro huquqqa asoslangan yondashuvni aks ettiradi. Harbiy harakatlarni to‘xtatish va siyosiy muzokaralarni qayta tiklashga chaqiriq keskin siyosiy ziddiyatlarni tinchlik bilan hal qilish yo‘lidagi samarali yechimdir. “Ikki xalq — ikki davlat” tamoyili BMT rezolyutsiyalariga to‘liq mos keladi va Yaqin Sharqda barqaror, uzoq muddatli tinchlikni ta‘minlashning yagona amaliy yo‘li sifatida qabul qilinadi. Bunday pozitsiya xalqaro hamjamiyatning inson huquqlariga hurmat bilan qarashi va doimiy tinchlikni ta‘minlashga intilishiga asoslanadi.

O‘zbekiston rahbarining BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha mintaqaviy kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklifi bu yo‘nalishda



to‘plangan tajriba va amaliy yondashuvlarni xalqaro miqyosda tizimlashtirish va tarqatishga qaratilgan muhim tashabbus bo‘ladi.

Ushbu markazni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad terrorizm va ekstremizm ta‘siriga tushib, muammoli hududlardan qaytgan shaxslarni jamiyatga qayta moslashtirish, ularni tinch hayotga integratsiya qilish, bu borada samarali va insonparvar ilmiy yondashuvlarni



Munosabat

MILLIY DIPLOMATIYADAGI YUTUQLAR

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasidagi nutqida nafaqat milliy manfaatlarimiz ifoda etildi, balki insoniyat oldida turgan global muammolarga qamrovli yechimlar taklif qilindi, ko‘plab tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, BMTning nufuzini yanada oshirish, Xavfsizlik Kengashini isloh qilish zarurligi qayd etildi. Zero, zamonaviy global tahdidlarga samarali va barqaror javob berish uchun davlatlarning hamkorligi hamda birdamligi o‘ta muhim va dolzarb.



Feruza MUHIDDINOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
professori, yuridik fanlar doktori

Nutqda so‘nggi yillarda mamlakatimizda inson kapitalini rivojlantirish sohasida ulkan yutuqlar qo‘lga kiritilgani ta‘kidlandi. Darhaqiqat, kambag‘allik darajasi 35 foizdan 6,6 foizga qisqardi. Ta‘lim tizimida ham tarixiy o‘zgarishlar yuz berdi — maktabgacha ta‘lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga, oliy ta‘lim qamrovi 9 foizdan 42 foizga yetdi. Bu raqamlar xalqimiz farovonligi va ijtimoiy siyosat samaradorligidan dalolat, albatta.

Prezidentimiz ta‘lim-tarbiya masalasini davlat siyosati darajasiga olib chiqib, uni xalqaro miqyosda ham yuksak minbarlarda ko‘tarmoqda. Xususan, pedagoglar obro‘-e‘tiborini oshirish, jamiyatdagi nufuzini mustahkamlash va xalqaro tajriba almashish imkoniyatini kengaytirish maqsadida Toshkent shahrida Butunjahon professional ta‘lim sammitini o‘tkazishni taklif qildi. Bu taklif zamirida buyuk jaddi bobolarimizning asriy orzusi — ma‘rifat va taraqqiyot orqali millatni yuksaltirish g‘oyasi mujassam. Zero, ta‘lim-tarbiya har qanday jamiyat kelajagini belgilaydigan eng muhim omildir. Sammitning O‘zbekistonda o‘tkazilishi, bir jihatdan, yurtimizning global ma‘rifat markaziga aylanayotganidan dalolat bersa, ikkinchidan, ustoz va murabbiylar qadriini yuksaltirishga qaratilgan amaliy qadam bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari sog‘liqni saqlash, bolalar kasalliklariga qarshi kurash va gender tenglik masalalariga ham to‘xtaldi. Mamlakatimizdagi yangi sog‘liqni saqlash tizimi har bir fuqaro, ayniqsa, bolalarining hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga qaratilgan. Bolalar saraton yoki boshqa og‘ir kasallikka duchor bo‘lsa, bu faqat bir oilaning emas, butun jamiyatning dardiga aylanadi.

Prezidentimizning BMT Bosh qarorgohida bu borada yuqori darajada tadbir o‘tkazish tashabbusi ham xalqaro hamjihatlikni kuchaytiradi. Chunki bunday og‘ir kasalliklarga qarshi kurash yagona davlatning emas, balki butun insoniyatning vazifasidir. Bu o‘rinda O‘zbekistonning taklifi har bir dardga qarshi birlashishi, tajriba almashish va hamkorlikda yechim topishga undaydi.

Osiyo xotin-qizlar forumini doimiy platformaga aylantirish taklifi, avvalo, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Forumning ahamiyati shundaki, u nafaqat alohida davlatda,

balki Osiyo miqyosida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, bilimi hamda tajribasini birlashtirish imkonini beradi.

Mintaqaviy hamkorlik masalalari ham nutqning muhim qismi bo‘ldi. Markaziy Osiyoda o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi 5 barobar oshgani, chegaralar ochilgani va integratsiya jarayoni yangi bosqichga ko‘tarilgani qayd etildi. Bu oddiy odamlar hayotida bevosita his etiladigan katta yutuq. Avval odamlar qo‘shni davlatlarga borishda qiyinchilikka duch kelgan bo‘lsa, hozir qarindosh-urug‘lari bilan erkin-erkin birlashib qolmoqda.

Afg‘onistonning yakkalanib qolmasligi haqidagi chaqiriq nafaqat siyosiy, balki insoniy masala. Afg‘on xalqi ham tinch-osuda hayot kechirishga haqli. Ular ihtolanssa, bu muammolarni faqat kuchaytiradi. Shu bois, Afg‘onistonni mintaqaviy va xalqaro hamkorlik jarayoniga jalb etish barchamiz uchun xavfsizlikni mustahkamlash kafolatidir. G‘azo va Ukraina haqida aytilgan fikrlar esa tinchlikka intilish umumbashariy ehtiyoj ekanini ko‘rsatdi. Zero, harbiy harakatlardan ko‘proq oddiy aholi, bolalar, ayollar jabr ko‘radi.

Mintaqaviy kengashni Xalqaro markazga aylantirish tashabbusini xavfsizlik yo‘lidagi yangi qadam deyish mumkin. U nafaqat terrorchilikka, balki ijtimoiy muammolar — jinoyatchilik, radikal g‘oyalar, yoshlarning ekstremizmga tortilishiga qarshi ham samarali kurashish imkonini beradi.

Orolbo‘yidagi 2 million gektarga cho‘l o‘simliklari ekilgani, 2030-yilgacha hududning 80 foizini yashillashtirish rejalashtirilgani aytiladi. Shuningdek, suv inqirozi global tahdid sifatida e‘tirof etilib, xalqaro “yo‘l xaritasi” qabul qilinishi taklif qilindi.

Prezidentimiz “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati”ni tuzish va qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi. Dunyoning ertasi, farovonligi va taqdiri yosh avlod qo‘lida. Shu bois, ularni qo‘llab-quvvatlash, yoshlar uchun imkoniyatlar eishigini ochish davlatimiz siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

Taklif va tashabbuslar orasida mamlakatlar o‘rtasida raqamli rivojlanish va sun‘iy intellektidan foydalanishdagi tengsizliklarni bartaraf etish masalasi ham bor. Hozirgi kunda turli davlatlarda raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt sohasidagi yutuq va imkoniyatlar bir xil darajada emas. Bu esa ayrim mamlakatlar uchun rivojlanishda to‘siq va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda tengsizlikka sabab bo‘lmoqda.

Ushbu muammolarga yechim sifatida davlatimiz rahbari sog‘liqni saqlash, ta‘lim va madaniyat kabi muhim sohalarda sun‘iy intellektning amaliy yechim va modellarni mamlakatlar o‘rtasida beg‘araz, ya‘ni manfaatdorlikka qaramay, ochiq almashishga asoslangan xalqaro hamkorlik mexanizmlarini yaratish taklifini ilgari surdi. Bu mexanizm orqali mamlakatlar o‘zaro tajriba almashadi, ilmiy va texnologik yutuqlarini birgalikda rivojlantiradi, natijada raqamli tengsizlik kamayadi.

Sun‘iy intellekt yordamida sog‘liqni saqlash sohasida kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolash, ta‘limda yangi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, madaniyat sohasida tarixiy va ma‘naviy boyliklarni saqlash va tarqatish imkoniyati yaratiladi. Bu esa jamiyat hayotida farovonlikni yanada barqarorlashtirishga zamin yaratadi.

Davlatimiz rahbari yosh avlodning kelajagi va jahon taraqqiyotidagi roliga ham alohida e‘tibor qaratilishi kerakligini ta‘kidladi. Ushbu tashabbusdan yoshlar qalbi va ongiga tinchlik, insonparvarlik, do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi buyuk qadriyatlarini singdirish maqsad qilgan. Sababi, farovon va osoyishta jamiyat barpo etishda aynan yoshlar tarbiyasi muhim.

Shularni inobatga olgan holda, Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta‘sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi ilgari surildi. Bu tashabbus yoshlar o‘rtasida xalqaro darajada do‘stlik va hamkorlikni mustahkamlash, tinchlik g‘oyalarini keng tarqatishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ushbu nutq XXI asrda insoniyat oldida turgan murakkab va jiddiy muammolarni hal etishda xalqaro hamjamiyatning birdamlik va hamkorligi qanchalik muhim ekanini ko‘rsatib berdi. O‘zbekistonning global muammolarga mas‘uliyatli yondashuvi, barqaror taraqqiyot, tinchlikparvarlik va inson qadr-qimmatiga berilgan katta e‘tibori namoyon etildi.

Bu nutq orqali Prezidentimiz mamlakatning nafaqat mintaqaviy, balki dunyo miqyosida ijobiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shishga tayyor ekanini ko‘rsatdi. Zero, ilgari surilgan har bir taklif va tashabbus xalqaro hamjamiyatni amaliy hamkorlik, bir-biriga yordam berish, muammolarni birgalikda yechishga chorlaydi.

“Yosh avlod ongi va qalbiga tinchlik, insonparvarlik, o‘zaro hurmat hamda ishonch g‘oyalarini singdirish — kelajak uchun eng ishonchli investitsiya. Ertangi siyosat, iqtisodiyot, fan, madaniyat va hatto dunyo tinchligi bugungi yoshlar qo‘lida ekanini unutish mumkin emas.

Nutqda, shuningdek, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazi ochilishi va ajdodlarimiz ilmiy merosini BMTda taqdim etish rejasini bildirildi. Islom sivilizatsiyasi markazi va ajdodlarimiz ilmiy merosini BMTda taqdim etish bu — xalqimiz ma‘naviy merosini jahonga tanitish, shu bilan birga, dunyoda islom ma‘rifati, bag‘rikenglik va ilm-fan an‘analari targ‘ibotiga xizmat qiladi.

Buyuk ajdodlarimizning boy ma‘naviy va ilmiy merosini jahon miqyosida namoyish etish tashabbusi, avvalo, mamlakatimiz uchun katta siyosiy ahamiyatga ega. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Muturidiy kabi ulug‘ allomalar butun islom sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan. Ular nafaqat diniy ilm, balki ma‘rifat, axloq, bag‘rikenglik va tinchlik g‘oyalarini targ‘ib qilgan. BMTda ular merosini alohida taqdim etish O‘zbekistonning ma‘naviy maqomini mustahkamlaydi, jahon hamjamiyatining tarixiy merosimini chuqurroq anglashga yordam beradi. Millatlararo va dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalarini keng yoyishga xizmat qiladi, yosh avlod uchun namuna bo‘ladi.

Davlatimiz rahbarining nutqi yangi O‘zbekistonning islohotlari, mintaqaviy hamjihatlik va global diplomatiyadagi faol ishtirokini namoyon etdi. BMT minbarida ilgari surilgan tashabbuslar jahon hamjamiyatini inson qadri, tinchlik va hamjihatlik atrofida birlashtirishga da‘vat etdi. Bu nutq O‘zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlagan barobarida mamlakatimizdagi islohotlarning asosiy g‘oyasi “Inson qadri hamma narsadan ulug‘” degan tamoyilga asoslanganini dunyoga namoyish etdi.



Nuqtayi nazar

ENG YIRIK XARID

AVIAKOMPANIYAMIZ SALOHIYATINI SEZILARLI DARAJADA OSHIRADI

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allik ko‘rsatkichi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqargani qayd etildi. Bu natija, avvalo, ta‘lim va ilm-fan tizimi yangilanishi, innovatsion tarmoqlar hamda texnologik sanoat korxonalari yo‘lga qo‘yilishi, “yashil” energetika va transport infratuzilmasi modernizatsiyasi, shuningdek, kichik biznesni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash orqali millionlab ish o‘rinlari ochilishiga bog‘liq.

Iqlimga oid global chaqiriqlar qatorida Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha qilinayotgan ishlar alohida qayd etildi. Ko‘lining qurigan tubida keng miqyosli yashil qoplamalar o‘tqazish va 2030-yilgacha hududning katta qismini yashillashtirish rejasini mintaqaviy ekologiya siyosatida namuna sifatida ko‘rilmogqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonda Suvni tejash bo‘yicha butunjahon forumini o‘tkazish tashabbusi global suv xavfsizligi uchun “yo‘l xaritasi” ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Nyu-Yorkdagi muloqotlar orqali O‘zbekiston — AQSH munosabatlarida pragmatik kun tartibi yanada oydinlashdi. Prezidentimiz tashrif doirasida O‘zbekiston uchun tarixiy ahamiyatga ega yirik kelishuvlar imzolandi. Jumladan, milliy aviakompaniyamiz

8 milliard dollardan ortiq mablag‘ga 22 ta zamonaviy “Boeing 787 Dreamliner” samolyotini xarid qiladi. Bu O‘zbekiston tarixidagi eng yirik xarid. Ushbu samolyotlar orqali milliy aviakompaniyaning park imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi va xizmat ko‘rsatish sifatini jahon standartlariga yaqinlashtiradi. Bugun “Uzbekistan Airways” AJ parkida asosan Airbus A320, Boeing 757, Boeing 767 hamda Boeing 787 turidagi cheklangan sondagi laynerlar mavjud. Yangi kelishuvdan so‘ng parking katta qismi zamonaviy va yonilg‘i tejamkor laynerlar bilan ta‘minlanadi. “Boeing 787 Dreamliner” dunyodagi eng samarali, uzoq masofaga mo‘ljallangan laynerlardan.

22 ta Boeing 787 yangi layneri kelishi tufayli “Uzbekistan Airways” AJ qator strategik yo‘nalishlarni ochish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jumladan, Toshkentdan Nyu-York, Los-Anjeles, Toronto, Singapur, Tokio, Sidney va London kabi uzoq masofali shaharlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri parvoz amalga oshirilishi mumkin. Bu esa O‘zbekistonni haqiqiy global aviatsiya markaziga aylantirish sari qadam bo‘ladi.



Abdulaziz G‘ULOMOV,
Toshkent davlat transport
universiteti prorektori

“E‘tiborli jihati shundaki, aviatsiya sohasidagi yirik kelishuvga AQSH Prezidenti Donald Tramp “Truth Social” ijtimoiy tarmog‘ida munosabat bildirdi. Bu O‘zbekiston uchun, uning jahondagi nufuzi uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman, O‘zbekiston rahbarining BMT minbarida ilgari surgan tashabbuslari va AQSH bilan pragmatik muloqotni mamlakatning barqaror taraqqiyot, global ehtiyojlar va milliy manfaatlarini uyg‘unlashtirish siyosatiga xizmat qiladi. Markaziy Osiyoning yangi qiyofasi — ochiqlik, hamjihatlik va integratsiya — qo‘shnilar, strategik sheriklar va xalqaro institutlar bilan hamkorlikning yangi bosqichini belgilash imkonini beradi. Bu yo‘lda inson kapitali, innovatsiyalar va “yashil” iqtisodiyotga tayanish borasidagi sa‘y-harakatlar ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib qolaveradi.



Ulug‘bek SHERMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasining Xalqaro ishlar,
mudofaa va xavfsizlik
masalalari qo‘mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Joriy yil 23-sentabr kuni O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida nutq so‘zladi. Nutqda BMT islohoti, tashkilotning Barqaror rivojlanish maqsadlari va O‘zbekistondagi islohotlar, Markaziy Osiyo va dunyodagi xavfsizlik, transport koridorlari, iqlim o‘zgarishi, sun‘iy intellekt, yoshlar va ma‘rifatli islom kabi



mavzularda real muammolar o‘rtaga tashlanib, yechimi bo‘yicha amaliy taklif va tashabbuslar bildirildi.

Avvalo, BMTning tuzilmaviy islohotini nazarda tutuvchi “BMT — 80” tashabbusini to‘liq qo‘llab-quvvatlagan holda eng og‘ir va o‘tkir global masalalarni murosamo yo‘li bilan hal etish uchun BMTni asosiy platforma sifatida saqlab qolish, unga unikal mexanizim sifatida tayanish g‘oyasi ilgari surildi.

Bu borada zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va tarkibini kengaytirish zarurligi ta‘kidlandi.

Oxirgi yillarda BMTning Xavfsizlik Kengashi urushlar, harbiy to‘qnashuvlarning oldini olish va xalqaro barqarorlikni ta‘minlashda yetarli darajada o‘z vazifasini bajarmayapti. Shunga qaramay, jahon siyosatida axborot markazi va yirik davlatlarning pozitsiyasini ko‘rsatadigan institutsional maydon sifatida foydali maqsadga xizmat qilmoqda.

Mutaxassislar Xavfsizlik Kengashi kengayishi zarurligini muhokama qilib, bunda, asosan, yangi a‘zo davlatlarni kiritish orqali uning vakilligini yanada oshirish maqsad qilinoqda. Kengayish tarafdorlari, masalan, Afrika va Lotin Amerikasi kabi katta hududlarda doimiy vakillik yo‘qligi sababli ushbu qit‘adagi davlatlarning doimiy a‘zoliqini ta‘minlash, Osiyo aholisi va hozirgi salohiyatidan kelib chiqib, uning vakillarini ham Kengashga kiritish zarurligi bo‘yicha fikrlar bildirilmoqda.

Shu munosabat bilan dunyoda qarama-qarshilik, nizo va urushlar kuchayayotgan hamda BMT transformatsiyasiga oid ishlar muhokama qilinayotgan davrda O‘zbekiston tomonidan mazkur masala bo‘yicha pozitsiya bildirilishi o‘z vaqtida qilingan muhim harakat bo‘ldi.

Nutqda Afg‘oniston masalasiga alohida e‘tibor qaratilib, mamlakatda tinchlik va osuda hayotni ta‘minlashda xalqaro hamjamiyatning

sa‘y-harakatlarini birlashtirish zarurligi ta‘kidlandi. Ushbu masala davlatimiz rahbari tomonidan Bosh Assambleyaning avvalgi sessiyalarida ham ko‘tarilgani Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish O‘zbekiston tashqi siyosatida eng muhim vazifalar sirasiga kirganidan dalolat beradi.

Biz Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning uzviy qismi sifatida ko‘ramiz. O‘zbek va afg‘on xalqlari azaldan yonma-yon yashab keladi. Bizni umumiy madaniy, ma‘naviy va tarixiy qadriyatlar, yagona din, buyuk ajdodlarimiz merosi birlashtirib turadi.

Hozirgi murakkab va ziddiyatli davrda ushbu davlatni yakkalab, muammolar g‘irdobiga tashlab qo‘yish mumkin emasligi aytib o‘tildi. Prezidentimiz boshqa xalqaro tadbirlarda ham Afg‘oniston masalasiga alohida to‘xtaladi. Bu borada mamlakatning iqtisodiyotini qayta tiklash, u bilan mintaqaviy kooperatsiyani rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha xalqaro hamjamiyatga murojaat qilib kelmokda.

Masalaning muhim jihati shundaki, O‘zbekiston ushbu masalaga amaliy jihatdan ham yondashmoqda. Davlatimiz insonparvarlik yordami sifatida Afg‘onistonga birlamchi zarur oziq-ovqat mahsulotlari, dori-darmon va kiyim-kechaklarni tizimli ravishda yetkazib bermoqda.

Eng muhimi, ikki davlat o‘rtasida sheriklikni yanada kengaytirish, savdo, iqtisodiyot, energetika, transport va boshqa sohalarni izchil rivojlantirish yuzasidan hamkorlik muhokama

qaratgan. Ekspertlar ma‘lumotiga ko‘ra, hozir hududda 60 mingdan ortiq odam halok bo‘lgan. Qurbon bo‘lganlarning 80 foizdan ortig‘i tinch aholi vakillari, ya‘ni ayollar va bolalar ekanini, G‘azo sektorida hali ham yashayotgan aholiga gumanitar yordam ko‘rsatishda to‘siqlar mavjudligi barchani chuqur tashvishga solmoqda. O‘zbekistonning BMT minbarida ushbu fojia xususida bildirgan aniq pozitsiyasi xalqaro huquqning teng huquqlar va xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash tamoyiliga to‘g‘ri keladi.

Ukraina atrofidagi vaziyatga ham e‘tibor qaratilib, bu muammoni diplomatik yo‘llar bilan hal etish bo‘yicha yuqori darajadagi muloqotlar boshlangani olqishlandi. Bu masalada ham O‘zbekiston yana bir bor o‘zining tashqi siyosatini tinchlikparvar va insonparvar g‘oyalari asosida yuritayotganini ko‘rsatdi.

Terrorizm masalasi nutqda alohida o‘rin egalladi. Unga qarshi kurashish bo‘yicha aniq takliflar ilgari surildi. Xususan, BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda tuzilgan Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha mintaqaviy kengashni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklif etildi.

Mazkur kengash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan tuzilgan. U Markaziy Osiyodagi barcha mamlakat ekspertlari va mutaxassislarini birlashtirib kelmokda. Radikal g‘oyalar ta‘siriga tushib qolgan fuqarolarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish dasturlarini takomillashtirish hamda Markaziy Osiyoda terrorizm targ‘ibotiga qarshi kurashish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kengashning asosiy vazifasidir.

Uning platformasida muammoli hududlardan qaytarilib, reintegratsiya qilingan shaxslarning normal va to‘laqonli hayotga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta‘minlaydigan usul va dasturlar jamlanadi. Ushbu tuzilma ishi jinoiy javobgarlikka tortish, psixologik-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va reintegratsiya, diniy deradikalizatsiya, jamiyat va fuqarolik jamiyatini jalb qilish omillarini jamlagan kompleks yondashuvga asoslanadi.

O‘zbekiston 530 dan ortiq fuqaroni, asosan, ayollar va bolalarni Vatanga qaytardi. Ularga tibbiy, ijtimoiy va ruhiy yordam ko‘rsatdi, kasb-hunarga o‘qitish va ishga joylashtirish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqildi.

Davlatimiz rahbarining taklifi ushbu tuzilmani mintqa darajasidan xalqaro darajaga olib chiqish, muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo‘yicha tajriba almashish borasidagi muhim platformaga aylantirishga xizmat qiladi. Ushbu taklif BMTga a‘zo



Mazkur kengash O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan tuzilgan. U Markaziy Osiyodagi barcha mamlakat ekspertlari va mutaxassislarini birlashtirib kelmokda. Radikal g‘oyalar ta‘siriga tushib qolgan fuqarolarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish dasturlarini takomillashtirish hamda Markaziy Osiyoda terrorizm targ‘ibotiga qarshi kurashish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish kengashning asosiy vazifasidir.

alohida rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etdi. Ushbu taklifning amalga oshirilishi Afg‘onistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyalashuvini ta‘minlash bo‘yicha huquqiy zamin hozirlaydi. Mintaqaviy hamkorlik jarayonlarida ishtirok etishi uchun davlatlarga kuchli da‘vat bo‘ladi.

Shuningdek, G‘azo sektoridagi tobora keskinlashib borayotgan gumanitar inqiroz bo‘yicha ham O‘zbekiston pozitsiyasini bildirdi. Ushbu hududda harbiy harakatlarni to‘xtatish va siyosiy muzokaralarni davom ettirishga chaqirdi. BMT rezolyutsiyalariga muvofiq, “ikki xalq uchun — ikki davlat” tamoyili amalga oshirilishi davlatimizning qat‘iy nuqtayi nazari ekanini ta‘kidladi.

Davlatimiz rahbari ko‘p marta xalqaro tadbirlarda G‘azo sektoridagi o‘ta qayg‘uli vaziyatga jahon hamjamiyatining e‘tiborini

davlatlarni xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidlarga qarshi kurashda yanada jipslashtirib, birgalikda harakat qilishi uchun muhim mexanizimni taqdim qilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonda BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi mintaqaviy ofisini ochishga qaratilgan taklif ushbu sohadagi institutsional salohiyatni yanada kengaytiradi va terrorizmning yangi shakllari, xususan, kiberjinoiyatchilikka qarshi kurashishda mamlakatimiz va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun yangi imkoniyatlarga zamin yaratadi.

Shubhasiz, Prezidentimizning ushbu nutqidagi g‘oyalar, ilgari surilgan taklif va tashabbuslar Markaziy Osiyo va dunyo hamjamiyatining farononligi yo‘lida mintaqaviy va global xavfsizlikni ta‘minlashda poydevor va qadam sifatida tarixda qoladi.

TINCHLIKPARVARLIK, BAG‘RIKENGLIK SIYOSATI

O‘ZIGA XOS TAJRIBA MAKTABI

Bugungi tez o‘zgaruvchan va murakkab geosiyosiy sharoitda xalqaro institutlarning ta’sirchanligi va ahamiyati sezilarli darajada zaiflashmoqda. Qarama-qarshilik va nizolar, qurolli to‘qnashuvlar tobora kuchayib borayotgani, texnologik va ijtimoiy tengsizlik ortishi, iqtisodiy va gumanitar inqirozlar, terrorizm va ekstremizm tahdidlari saqlanib qolayotgani nafaqat milliy xavfsizlikka, balki global barqaror rivojlanish, ijtimoiy hamjihatlik va dinlararo totuvlikka ham jiddiy tahdid solayotir.



Sodiq TOSHBOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Din ishlari bo‘yicha
qo‘mita raisi

Davlatimiz rahbarining BMT Bosh Assambleyasi 80-sessiyasida so‘zlagan nutqi shu kabi global muammolarga samarali amaliy yechimlar taklif qilingani bilan ahamiyatli bo‘ldi.

O‘zbekiston zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashini transformatsiya qilish va uning tarkibini kengaytirish tarafdori ekanini aytib o‘tildi. Ahamiyatlisi, bu jihat O‘zbekistonning global siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyorligini va mas’uliyatli hamkor sifatida dunyo hamjamiyati oldida o‘z pozitsiyasini aniq namoyon etayotganini ko‘rsatadi.

Nutqda yana bir dolzarb masala sifatida terrorizmga qarshi kurashish, reabilitatsiya va integratsiya masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Shuningdek, muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish va ularni ijtimoiylashtirish bo‘yicha muhim takliflar ilgari surildi.

Darhaqiqat, bu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar mamlakatlar xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, Markaziy Osiyoda BMTning Global aksiterror

amaliy tashabbus sifatida jahon hamjamiyati diqqat markazida bo‘lib turibdi.

Prezidentimiz yana bir ustuvor masalaga to‘xtalib, “Ertangi kunimiz, dunyoning taqdiri va farononligi o‘sib kelayotgan yosh avlod qo‘lida. Yoshlarimizning qalbi va ongiga tinchlik, gumanizm va do‘stlik, o‘zaro ishonch va hurmat kabi oljanob g‘oyalarni singdirish dolzarb vazifamizdir”, dedi.



Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqalarida insonning yashashi, ta’lim olishi, mehnat qilish va o‘z iqtidorini namoyon etishi, shuningdek, diniy e’tiqodini erkin ifodalash kabi hayotiy huquqlari turli darajada cheklanmoqda.

Shunga qaramay, O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari bag‘rikenglik, tinchlik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida tinch-totuv hayot kechirmoqda.



strategiyasini hayotga tatbiq etish borasida samarali ishlar qilinmoqda. BMTning Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi bilan hamkorlikda Reabilitatsiya va qayta integratsiya masalalari bo‘yicha mintaqaviy kengash tuzilgan. Prezidentimiz uni Xalqaro kompetensiyalar markaziga aylantirish taklifini bildirdi. Bu tuzilma muammoli hududlardan qaytarilgan shaxslarni tinch hayotga moslashtirish bo‘yicha tajriba almashish uchun muhim platforma bo‘lishi shubhasiz.

O‘zbekiston, o‘z navbatida, Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasining mintaqaviy ofisini O‘zbekistonda ochish uchun zarur sharoit yaratishga tayyor ekanini bildirdi. Bu nafaqat mintqa, balki butun dunyoda xavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan

Shundan kelib chiqib, Jahon yoshlarining tinchlik sari harakatini ta’ sis etish va uning qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifi ilgari surildi. Mazkur tashabbus oshirilayotgani, islom ma’rifati g‘oyalarni chuqur o‘rganish va dunyoga targ‘ib etish bo‘yicha sa‘y-harakatlar faol davom ettirilayotgani qayd etildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda turli diniy konfessiyalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ilg‘or

tashabbuslar xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Bu yangi O‘zbekiston siyosatining umuminsoniyat manfaatlariga qanchalik mos va hamohang ekanini yaqqol namoyon qilmoqda.

Hozirgi kunda dunyoning turli mintaqalarida insonning yashashi, ta’lim olishi, mehnat qilish va o‘z iqtidorini namoyon etishi, shuningdek, diniy e’tiqodini erkin ifodalash kabi hayotiy huquqlari turli darajada cheklanmoqda. Shunga qaramay, O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari bag‘rikenglik, tinchlik va o‘zaro hurmat tamoyillari asosida tinch-totuv hayot kechirmoqda.

Turli din vakillarining erkin ravishda o‘z ibodatlarini ado etishi, rasmlarini bemalol bajarishi hamda o‘zaro ahillik va hamjihatlik muhiti ko‘p konfessiyali davlatlar tomonidan katta qiziqish bilan kuzatilmokda. O‘zbekiston tajribasi bu jihatdan ko‘plab mamlakatlar uchun namuna bo‘lmoqda.

O‘tgan qisqa davrda Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Samarqandda Hadis ilmi maktabi, Buxoroda Mir Arab oliy madrasasi tashkil etildi.

Ushbu muassasalar “Jaholatga qarshi ma’rifat” ezgu g‘oyasi asosida jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni ta‘minlash, yoshlarni zamonaviy fikrlaydigan va buyuk ajdodlarimizga har jihatdan munosib etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Shu ma’noda, Prezidentimiz yaqin yillarda mintaqamiz uchun noyob bo‘lgan Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishini, buyuk ajdodlarimiz — mutafakkir allomalar Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiyning boy ma’naviy va ilmiy

merosining alohida taqdimotini BMTda o‘tkazish rejalanganini ma’lum qilgani quvonarli hol, albatta!

Zero, ulkan megaloyiha — Islom sivilizatsiyasi markazi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib borish, ajdodlarimizning boy ilmiy merosini keng targ‘ib qilish, islom dinining tinchlikparvarlik va bag‘rikenglik mohiyatini namoyon etish borasida noyob platforma vazifasini bajaradi.

Umuman, davlatimiz rahbari BMT yuksak minbaridan turib ta‘kidlaganidek, yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlar Barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq izchil davom ettirilmoqda. Bu siyosatning markazida inson qadri, uning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, har bir oilaning faronon hayot kechirishiga erishish kabi ezgu maqsadlar turadi. Demak, ortga qaytmas islohotlar asosida barpo etilayotgan demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy yangi O‘zbekiston kelajakka ishonch bilan ilgarilarmoqda.

Prezidentimizning ushbu nutqi nafaqat O‘zbekiston, balki jahon hamjamiyati uchun muhim siyosiy va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslar global masalalarda o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, tinchlik va taraqqiyotga intilish, terrorizmga qarshi kurashish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi hamda bag‘rikenglikni kuchaytirishga qaratilgan keng qamrovli global strategik g‘oyalardir.

Albatta, ushbu ezgu tashabbus va takliflar dunyoda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlashda bebaho hissa qo‘shish bilan birga xalqaro hamjamiyatning o‘zaro hamkorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Sherzod QORABOYEV olgan suratlari.

— Loyihani boshqa mahallalarda ham ommalashtiryapmiz, — deydi tadbirkor. — Endi mingdan ortiq kishi bilan klaster

“Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” dasturi doirasida eksportchi korxonalar har jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda. Ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish maqsadida Janubiy Koreya Respublikasining Asan shahrida Farg‘ona investitsiyalar va savdo uyi ochildi. Bu mahalliy mahsulotlarni Janubiy Koreya bozoriga keng kirib borishi hamda ishlab chiqaruvchilarga mahsulotlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri eksport qilish imkoniyatini bermoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tahlil

Davlatimiz rahbarining qishloq xo'jaligida ijara munosabatlari takomillashtirish, ijarachilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga alohida e'tibor qaratishi ijtimoий adolati ta'minlash va fermerlar uchun ishonchli huquqiy asos yaratish yo'lidagi muhim qadamdir. Bu ko'rsatma va topshiriqlar ijara munosabatlardagi ziddiyatlarni kamaytirish, investitsiyalarni jalb qilish va soha rivojiga yangi sur'at bag'ishlash imkonini beradi. Shuningdek, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish barobarida barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Qonun ijrosini ta'minlash uchun hududlarda jamii 175 xodim jalb etilgan. Bundan tashqari, Davlat kadrlaridagi palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasida ischi guruhi tuzilgan. Ular ko'magida 2025-yilda 166 ta mahallada xatlov o'tkazildi. Ijro esa allaqachon boshlanib, samarali ko'rsatkiachiga erishilmoqda. Xususan, hozirgacha 48 ming 498 ta ko'chmas mulk obyekti xatlovdan o'tkazildi. 34 ming 277 ta obyekti haqidagi ma'lumot UZKAD axborot tizimiga yuklandi. Yana 18 ming 640 ta obyekti ma'lumotlari "E'tirof" avtomatlashtirilgan tizimiga o'tkazildi. Muhokama jarayonida esa 14 ming 992 ta obyekti turibdi. Kadrlar aqaratilgan rasmiy kadastruz saytida va mahalla fuqarolari yig'inlarida 2401 ta obyekti haqidagi ma'lumot o'lon qilingan. 561 ta obyekti Adliya organlari tomonidan o'rganilayotgan bo'lsa, 23 tasi bo'yicha komissiya mulk huquqini tan olishni rad etgan.

Mazkur o'zgarishlar aholi manfaatini, mulkiy huquqini qonuniy asosda e'tirof etish orqali inson qadrini ulug'lashga qaratilgan. Uyo-joyiga qonuniy egalik qilish imkoniyati har bir fuqaroga tinch va osuda hayot kechirishga zamin yaratmoqda. Bu esa ertangi kunga, mamlakatdagi katta islohotlarga bo'lgan mustahkam ishonch demak.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Darhaqiqat, O‘zbekistonda bugun yoshlarning intellektual salohiyatiga eng katta strategik resurs sifatida qaralib, davlat va jamiyat taraqqiyoti aynan bilimli va tashabbuskor avlod bilan bog‘liq holda ko‘rilmoqda. Ayni jihatlar nazarda tutilgan holda, “El-yurt umidi” jamg‘armasi qisqa vaqt ichida mamlakatimizning uzoq muddatli kelajagini belgilovchi muhim institut darajasiga ko‘tarildi. Uning asosiy maqsadi iqtidorli yoshlarni dunyoning eng nufuzli ilm maskanlariga yuborish, bilim va tajribasini vatan taraqqiyotiga safarbar etishdan iborat. Jamg‘arma faoliyati “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar bilan bevosita uyg‘unlashib, yangi avlod ishlohtchilari va yetakchilarini tayyorlashga qaratilgan.

Bu jarayon aslida tarixiy ildizlarga ega. XX asr boshida jadid ma‘rifatchilari zamonaviy fan va kasb-hunarlarni o‘rganishga katta e‘tibor

qaratib, yoshlarga dunyo tajribasini olib kirish uchun yo‘l ochgan edi. Yuzlab talabalar chet elga yuborildi, ular esa, o‘z navbatida, yangi maktablar, ilmiy muassasalar va yangicha fikrlashni shakllantirishga xizmat qildi. Oxir-oqibat shafqatsiz va noxolis siyosatning bevaqt qurboniga aylangan jadidlar ham, ularning qo‘llab-quvvatlovi bilan chet elda o‘qib, yurtga qaytgach, eng ilg‘or g‘oya va metodlarni targ‘ib qilish orqali millatni oyoqqa qo‘yish orzusunda jiddu jahd ko‘rsatgan talabalar ham maqsadlari ro‘yobiga yetishmagan bo‘lsa-da, ulardan bir ezgu intilish — millatini eng ilg‘orlar safida ko‘rish g‘oyasi meros bo‘lib qoldi. Prezidentimizning 2025-yil 5-maydagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Istiqbolli kadrlarni tayyorlash bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi qayta tashkil etilishi ana shu tarixiy g‘oyaning zamonaviy shaklini yuzaga chiqarib, jadidlarning maqsadlarini institutsional asosda davom ettirmoqda.



Kamolot pillapoyasida

Joriy yilgi o‘tkazilgan ochiq tanlov ham bunga yorqin misol bo‘la oladi. 8 mingdan ortiq nomzod hujjat topshirib, yakunda 173 nafar

yigit-qiz Prezident stipendiyasi sovrindori deb e‘tirof etildi. Ulardan qariyb 70 foizi dunyoning TOP-100 talikdagi oliyog‘hlariga

qabul qilindi, 42 foizi Buyuk Britaniya, 26 foizi AQSH, qolganlari esa Xitoy, Janubiy Koreya, Italiya va boshqa davlatlarda o‘qimoqda. Eng

muhamm, jarayonlar ONE ID platformasi orqali shaffof va teng imkoniyat tamoyillari asosida o‘tkazilib, natijalar omma uchun ochiq e‘lon qilindi.

“El-yurt umidi” stipendiyasi sovrindorlarini taqdirlashga bag‘ishlab Toshkentda o‘tkazilgan xalqaro forum esa jamg‘arma faoliyatining ma‘naviy-ma‘rifiy mazmunini yanada yaqqolroq namoyon etdi. Chet ellarda tahsil olayotgan stipendiatlar jurnalistika, biotibbiyot, iqtisodiyot, turizm va boshqa yo‘nalishlarda o‘rttirgan bilimlarini yurt manfaatiga safarbar etish niyatlarini bayon qilib, shaxsiy orzu va jamiyat manfaatini bir butun maqsadga uyg‘unlashtirdi. Bu chiqishlarda bir haqiqat aniq sezildi: “El-yurt umidi” shaxsiy yutuqlarni umumiy manfaat bilan bog‘lab, inson kapitalini rivojlantirish orqali O‘zbekistonning intellektual qiyofasini belgilayotgan eng muhim tayanchlardan biriga aylandi.

SHAXSIY MAQSADLAR UMUMIY MANFAAT BILAN UYG‘UNLASHSA...

Shohnur FAXRIYEV, Perdyu universiteti (AQSH) bakalavriat bosqichi talabasi:

— Bolaligimda bir necha og‘ir kasalliklarni boshdan kechirdim. Tengdoshlarim sport maydonchalarida yugurib, o‘yin-kulgi bilan vaqt o‘tkazayotganida men tibbiyot markazlarida navbatda turganim, shifokorlar bilan shabtda bo‘lganim haligacha yodimda. O‘sha kunlarda shifokorlarning bilimi, bemorlar salomatligi uchun kunu tun mehnat qilishi va ayniqsa, fidoyiligi menga kuchli ta‘sir qilgan. Ana shu taassurotlar hayot yo‘limni belgiladi hamda bor kuch va iqtidorimni tibbiyot biologiyasi sohasiga bag‘ishlash qarorimni mustahkamladi.

Hozir Perdyu universitetida tahsil olish imkoniyatini qo‘lga kiritdim. Mazkur o‘quv dargohining nufuzi kuchli ilmiy baza va zamonaviy laboratoriyalarga egaligi bilan baholandi. Universitet biotibbiyot yo‘nalishida AQSHdagi yetakchi markazlardan biri sanaladi. Bu yerda molekulyar biologiyadagi biotibbiyot muhandisligigacha bo‘lgan keng qamrovli fanlar chuqur o‘qitiladi. Talabalar uchun nazariy bilimlar to‘g‘ridan to‘g‘ri amaliyot bilan bog‘langan tajribalarga uyg‘un holda o‘rgatiladi. Ilg‘or asbob-uskunalar bilan jihozlangan laboratoriyalarda kichik tadqiqotchi sifatida o‘z g‘oyalaringizni sinab ko‘rish imkoniyati bor. Har bir talaba ilmiy g‘oyasini sinab ko‘rish uchun esa genom tahlili uskunalaridan tortib, biotibbiyot muhandisligi jihozlarigacha bo‘lgan zarur sharoit yaratilgan.



Olib qaytishim mumkin bo‘lgan eng katta yutuq — xalqaro tajriba. Negaki xorijiy klinikalardagi ish uslubi, bemorlarga yondashuv, ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga tezkor tatbiq etish madaniyati bizga ko‘p narsani o‘rgata oladi.

Yurtimizga qaytib, shu tajribani mahalliy sharoitga moslashtirishga hissa qo‘shmoqchiman. Bunday qadamlar orqali tibbiyot sohasiga yangi texnologiyalar kirib keladi, zamonaviy uskunalardan to‘g‘ri foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yiladi, ilmiy natijalar tezkorlik bilan amaliyotga tatbiq etiladi.

Kelgusida yurtimizda biotibbiyot markazlari tashkil etilib, yosh olimlar genom tahlillari o‘tkazishi, turli kasalliklarning molekulyar sabablari o‘rganilib, sun‘iy intellekt yordamida kasallikka tashxis qo‘yish tizimlari ishga tushishi, transplantatsiya jarayonlari zamonaviy standartlarga mos yo‘lga qo‘yilishiga hissa qo‘shishni orzu qilaman. Shu orqali tibbiyotda faqat muolaja emas, balki kasalliklarning barvaqt oldini olish madaniyatini ham shakllantirish mumkin bo‘ladi. Maqsadim — ana shu jarayondan faol ishtirok etish, zarur bo‘lsa, bosh-qosh bo‘lish.

ILMGA TAYANGAN IQTISODCHI G‘OYANI YECHIMGA AYLANTIRA OLADI

Shahzod BOSIMOV, Pensilvaniya davlat universiteti (AQSH) bakalavriat bosqichi talabasi:

— Ilm yo‘lidagi qadamlarim ota-onam ishonchi va intilishi bilan boshlandi. O‘rtahol oila bo‘lishimizga qaramay, ular uch farzand oliy ma‘lumotli bo‘lishi uchun qo‘llaridan kelgan hamma sa‘y-harakatni qildi. Mening xorijda o‘qish ishtiyoqimni ko‘rib, 2021-yildan buyon fanlar va til o‘rganish bo‘yicha qo‘shimcha darslarga qatnashishim uchun imkoniyat yaratib berishdi. Shu bois, har muvaffaqiyatimda o‘zimdian ham ko‘ra ularning hisssasi kattaroq deb bilaman.

Pensilvaniya universitetida o‘qishni davom ettirish imkoniyatiga ega bo‘ldim. Bu yerda tahsil olish men uchun dunyo iqtisodiyotining qanday o‘zgarishini, tendensiyalarini chuqurroq anglashga zamin yaratadi. Zero, kuchli bilimga asoslangan, tahliliy raqam va modellar iqtisodiy jarayonlarning qiyofasini aniqroq ko‘rsatadi. Shu muhitda ilm suhbatdoshga aylanadi, savol bersangiz — javob qaytaradi, izlansangiz — yo‘l ko‘rsatadi.

Prezidentimizning 2025-yil 5-maydagi “Iqtidorli mutaxassislarning xorijda ta‘lim olishini qo‘llab-quvvatlash, ularda kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish va rag‘batlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, xalqaro



sertifikatlarga ega yoshlarning ochiq stipendiya tanlovida test bosqichidan ozod etilishi va ularga maksimal ball berilishi, iqtidorli yoshlar uchun



UMUMMILLIY ISTIQBOL UCHUN XIZMAT QILADIGAN YO‘L

Dinora JO‘RABOYEVA, Arizona universiteti (AQSH) bakalavriat bosqichi talabasi:

— Sayyohlik iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida jahon sahnda yetakchilik qilmoqda. AQSHdagi Arizona universitetida o‘qish imkoniyati menga bu sohani jahon andozalari asosida chuqur o‘rganishga yo‘l ochadi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali berilgan mazkur imkoniyat kelgusi yo‘limni aniq belgilab olishimda muhim o‘rin tutdi. Bu dastur umummilliy istiqbol uchun xizmat qiladigan yo‘l sifatida biz uchun katta mas‘uliyat ramziga aylanib ulgurdi. Chunki har bir stipendiatdan yangi g‘oyalar, ilg‘or bilimlar va xalqaro tajriba bilan qiyatishi kutilmoqda. Maqsadim turizm sohasini yangi bosqichga ko‘tarish, xizmat ko‘rsatish madaniyatini yuksaltirish, xavfsizlik va innovatsiyani uyg‘unlashtirish orqali yurtimizda turizm sohasiga yangicha ruh bag‘ishlashdan iborat.

Turizm madaniy muloqotni mustahkamlaydi, diplomatiyani kuchaytiradi, sarmoya kiritish uchun qulay muhit yaratadi va mamlakatning xalqaro qiyofasini shakllantiradi. Bir sayyohning tashrif otida ish o‘rinlari, yangi sarmoyalar va iqtisodiy imkoniyatlar yashiringan bo‘ladi. Iqtisodiy o‘sish manbai sifatida butun jamiyat hayotiga ta‘sir qiladi — yo‘llardan tortib, kichik tadbirkorlikkacha bo‘lgan sohalarni harakatga keltiradi.

Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlar butun dunyo uchun qiziq bo‘lgan beqiyos madaniy meros hisoblanadi. Tarixiy obidalariga tashrif buyurgan mehmonlar o‘tmish bilan uchrashadi, bir vaqtning o‘zida zamonaviy rivojlanish uyg‘unligiga guvoh bo‘ladi. Yangi mehmonxonalar, zamonaviy transport va xizmat ko‘rsatish madaniyati ularni yanada jozibador qiladi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida bunga alohida ahamiyat qaratilgan.

Sohani rivojlantirish iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirish bilan birga inson kapitalini rivojlantirishni ham talab etadi. Chet elda egallanayotgan bilim va tajribam, qaytgach yurtimiz manfaatini yo‘lida xizmat qilishiga ishonaman. Har bir bilim va ko‘nikma



mamlakatimiz turizmini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish yo‘lida xizmat qilishi uchun astoydil harakatdaman. Yurtimizda inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilayotgan bir paytda vazifamiz bu islohotlarning bir qismi bo‘lish, chet elda olingan bilimlar mamlakatni yo‘lida qanday xizmat qilishi mumkinligini namoyon etish ekanini yaxshi his qilib turibmiz.



Bugungi orzum ham, maqsadim ham bitta: yurtimizda amalga oshiriladigan sayyohlik loyihalari dunyodagi nufuzli jurnallarda tilga olinsin, millionlab mehmonlar esa O‘zbekistonga tashrif buyurib, madaniy meros bilan birga zamonaviy qulaylik va innovatsiyalarni ham ko‘rsin.

Shu maqsadda an‘anaviy tajribalarni zamonaviy me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirish yo‘lini izlayapman. Yurtimizda turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida mustahkamlanishi va jamiyat qiyofasini yangilaydigan jarayonga aylanishi bu borada asosiy tayanchimiz bo‘ladi.

CHET ELDA O‘QISH HAM IMTIYOZ, HAM MAS‘ULIYAT

Farangiz MO‘MINOVA, Birmingem universiteti (Buyuk Britaniya) bakalavriat bosqichi talabasi:

— Yoshligimdan suxandonlikka, televideniyaedagi boshlovchilarga qiziqqanman. Qiziqishlarim meni “Jurnalistika maktabi”da o‘qishga yetaklab, Farg‘ona televideniyesida efir orqali o‘z orzumga — boshlovchilik qilishimga zamin yaratdi.

Ota-onamning ishonchi men uchun doimiy tayanch va mas‘uliyat manbai bo‘lib kelgan. Birmingem universitetida tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lishim men uchun mana shu ishonchni oqlash yo‘lidagi eng katta qadamlardan biri deb bilaman. Bu yerda muloqot madaniyatini shakllantiradigan zamonaviy jurnalistika nazariyalari, raqamli



Firdavs BOLIYEV, Urbana-Shampeyn Illinoys universiteti (AQSH) bakalavriat bosqichi talabasi:

— Bugungi muvaffaqiyatlarga erishishimda oilam, yaqinlarim va albatta, ustozlarimning xizmatlari benihoya yuqori. Ota-onam menga sharoit yaratib, doimo ishonch bag‘ishlagani uchun minnatdor bo‘lib yashayman. Shu ishonch meni yangi sohalarni, jumladan, zamonaviy



mediateknologiyalar, kommunikatsiya psixologiyasi va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot tarqatish qonun-qoidalariga oid

bilimlar chuqur o‘rgatiladi. Universitetdagi laboratoriyalar, mediastudiyalar va axborot tahlili platformalari talabalarning ijodiy g‘oyalarini amalda sinashga sharoit yaratadi.

Shu bilan birga, xalqaro muhitda turli millat vakillari bilan fikr almashish jarayoni muloqot doiramni kengaytiradi. Bu tajriba menga nafaqat jurnalist, balki keng dunyoqarashli shaxs sifatida rivojlanish, turli mediainnovatorlar, professorlar va amaliyotchi mutaxassislardan to‘g‘ridan to‘g‘ri saboq olish orqali axborot sohasidagi yangi tendensiyalar bilan bir qatorda yurish imkonini ham beradi.

Kelgusida yurtimizga qaytib, to‘plagan bilim va tajribam asosida haqqoniy, sifatli va ta‘sirchan axborot maydonini yaratishga hissa qo‘shmoqchiman. Maqsadim — media sohasida innovatsiyalar joriy etish, raqamli texnologiyalar yordamida auditoriya uchun aniq va xolis ma‘lumot taqdim etish tizimini

rivojlantirish. Shuningdek, yosh jurnalistlar uchun treninglar tashkil etib, ularning ijodiy salohiyatini ochishga hissa qo‘shish niyatim bor.

“El-yurt umidi” stipendiyasi sovrindori maqomi men uchun shunchaki chet elda o‘qib kelish imtiyozini anglatmaydi, o‘ziga xos mas‘uliyat yuklaydi. Bu yurtning ovozi bo‘lish, uning xalqaro maydondagi ijobiy imijini ko‘tarish, axborot makonida ochiqlik va xolislikni ta‘minlaydigan tizim yaratish yo‘lida xizmat qilish imkoniyatidir. Universitetni muvaffaqiyatli yakunlab, vatanga qaytishim bilan mediamakonda raqamli jurnalistikani yangi bosqichga ko‘tarish, milliy manfaatlarni qat‘iy himoya qiladigan, ayni vaqtda xalqaro talablarga javob beradigan jurnalistlar avlodini shakllantirish o‘z oldimga qo‘ygan asosiy vazifalarimdan biri.

SUN‘IY INTELLEKT ARXITEKTURASINI YARATAMAN

ilmning eng muhim yo‘nalishlaridan biri — sun‘iy intellektni o‘rganishga undadi.

Urbana-Shampeyn Illinoys universitetiga sun‘iy intellekt sohasi bo‘yicha bakalavr dasturiga qabul qilinganman. Ushbu sohaga qiziqishim 8-9-sinflarda boshlangan. O‘sha paytlarda men ilk bor ChatGPT va Midjourney kabi sun‘iy intellektlarning imkoniyatlarini ko‘rib, bu soha oxirgi 60-70 yilda jadal rivojlanganini bilib hayratga tushganman. Keyinchalik mazkur sohani chuqurroq o‘rganib, o‘z sun‘iy intellekt modelimni yaratishga qaror qilganman. Bu esa meni Stenford universitetining yozgi maktabiga topshirishimga olib keldi. U yerda sun‘iy intellekt bo‘yicha chuqur nazariy bilimlar oldim va kichik imo-ishora tilini matnga tarjima qiladigan modelni yaratdim.

Sun‘iy intellekt modellari juda katta ma‘lumotlar bazasini talab etadi. Maqsadim kamroq ma‘lumot talab etadigan yangi

sun‘iy intellekt arxitekturasini yaratishdir. Ishonamanki, bu O‘zbekistonda sun‘iy intellekt sohasi rivojiga ulkan hissa qo‘shadi. Men qabul qilingan universitetda sun‘iy intellekt bo‘yicha innovatsion markaz mavjudligi maqsadimga erishishimda yordam beradi. Chunki u yerda talabalarga kuchli professorlar bilan birgalikda ilmiy izlanishlar olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Ilm yo‘lini tanlagan kishi o‘z hayotini doimiy izlanish va sinovlarga bag‘ishlar ekan, bu yo‘lda muvaffaqiyat ham, qiyinchilik ham yonma-yon kelishi tabiiy. Shunday daqiqalarda insonni oldinga yetaklaydigan kuch qat‘iyat, o‘ziga va vatanga bo‘lgan sadoqatdir. Shu sababdan men uchun har bir kichik natija ham katta maqsad sari qo‘yilgan qadam sifatida qadrlari.

Fikrimcha, har qanday yangilikning qiymati uni keng jamoatchilikka yetkazib bera olish bilan o‘lchanadi. Shuning uchun kelgusida yoshlar

bilan ishlash, ularga ilmiy izlanish sirlarini ochib berish, birgalikda loyihalar yaratish orzularimning eng muhim qismidir. Chunki ilm faqat kitoblar va auditoriyalar bilan chegaralanib qolsa, u to‘liq ma‘noda yashamaydi. Uni jamiyat ichiga olib kirish, odamlar hayotini yangilashtrish orqali haqiqiy qiymat kasb etadi. “El-yurt umidi” jamg‘armasi menga mana shunday qarashlarni mustahkamlash imkonini berdi. Ishonchim komilki, biz, yoshlar chin didan, astoydil mehnat va harakat qilishdan to‘xtamasak, yaqin kelajakda orzu-maqsadlarimiz natijasini xalqimizning kundalik hayotida ko‘rishga muyassar bo‘lamiz.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri Asliddin ABDURAZZOQOV tayyorladi.

Ma'lum bo'ldiki, tilda yuz minglab, hatto millionlab so'z bo'lsa ham bularning moddiy asosini bir necha o'nlab tovush tashkil qiladi. Tilning mana shu xossasi undagi so'zlarda tovush jihatdan umumiylikni vujudga keltirgan. Bir yoki bir necha tovush ko'plab so'zlarning tarkibida uchraydi. Hatto ba'zi so'zlar tovush jihatdan bir xil bo'lishi ham mumkin. Masalan, o'zbek tilida “ot” shakliga ega bo'lgan uchta so'z bo'lib, bularning biri ism, nom ma'nosida qo'llanadi, biri otishga buyruqni bildiradi, yana biri ma'lum hayvonni anglatadi. Agar “bog'”, “tog'”, “yog'”, “sog'” so'zlarini yoki “tom”, “tosh”, “tol”, “toy” so'zlarini oladigan bo'lsak, bu so'zlarning ikki tovushi bir xil bo'lib, faqat bir tovushi turlichadir. “Qil”, “qosh” so'zlarini oladigan bo'lsak, bu so'zlarda faqat bir tovush bir xil, qolgan ikkisi turlicha.



So'zlarda mavjud bo'lgan mana shu tovushdoshlik tildagi go'zallik hosil qiluvchi nisbatning bir turidir. Ammo buning o'zi bir necha ko'rinishlarga ega bo'lib, bular nutqqa turli miqdor va darajada husn bag'ishlaydi. Bularning eng husndori va eng ko'p foydalaniladigani so'z oxiridagi tovushdoshlik bo'lib, bundan so'z ustalari nazmda qofiya va nasrda saj' yasaydilar. Masalan, “ish” bilan “qish”, “so'zla” bilan “ko'zla”, “toshir” bilan “oshir”, “yer” bilan “ter” so'zlari tovushdoshlik bilan tugagan so'zlardir. Xalq bularning tovushdoshligini hisobga olib, “Dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas”, “Gapni kam so'zla, ishini ko'p ko'zla”, “Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar”, “Dehqonning xazinasi yer, uning kaliti ter” degan saj'li maqollarni yaratgan.

Shoirilar shunday so'zlar bilan ohangdosh bo'lib tugagan misralarni vujudga keltiradi. Masalan, “nihol”, “bol”, “qol”, “ol” so'zlaridan foydalanib, taniqli shoir Erkin Vohidov o'zi ekan olmaning hosilini ko'rib va bu mevaning nomi buyruq ma'nosidagi

*Garchi quritmas ko'zunning yoshini,
Haq uzun qilsun ul o'ynig yoshini.
Yig'lama ko'p bu vujudning ishq o'ti
Ne qurug'in qayg'usi, ne yoshini.*

“Mardum” shakliga ega bo'lgan ikkita so'z bor, biri odam, xalq ma'nosida, ikkinchisi ko'z qorachig'i ma'nosida. Navoiy mana shu shakldoshlikdan mohirona foydalanib:

*Qaro ko'zum kelu mardumlug' emdi
fan qilg'il,*

*Ko'zum qarosida mardum
kibi vatan qilg'il,*

degan shohbayt yaratgan. “Savdo” shakliga ega bo'lgan ikkita so'z bor, biri oldi-sotdini, ikkinchisi qorani va ko'chma ma'noda tashvishni bildiradi. Bundan foydalanib shoir:

*Zihe husnning zuhuridin tushub
har kimga bir savdo,
Bu savdolar bila kavmayn
bozorida yuz g'avg'o,*

deydi. Shunday qilib, tildagi tovushdoshlik nutq go'zalligining manbalaridan biri bo'lib, mohir so'zchilar bundan cheksiz ravishda

“dasturxon”, choyni “piyola”, oilani “uy” deb atashimiz mumkin. Bunda biz narsani uning makoni uchun yasalgan so'z bilan ifodalagan bo'lamiz. Butunni uning bo'lagining nomi bilan va bo'lagini butunning oti bilan, buyumni uni yasaydigan asbobning ismi bilan, natijani uning sababchisi bilan va sababchisini uning natijasi bilan atash mumkin. Tilda bir narsaning o'zini turlicha atash imkoniyati ham ko'pdir. Bunda ma'nodosh so'zlardan va so'zlarning ko'p ma'noligidan va yangi so'z yasash imkoniyatlaridan foydalaniladi. Turlicha ta'bir birikma, gap, fasl, bob va kitob doirasida ham amalga oshiriladi va bu bilan san'atning muhim asoslaridan biri bo'lmish turlicha, rang-baranglik vujudga keladi.

San'atga zavqi bor kishi tilning mazkur imkoniyatlaridan foydalanib, o'z nutqiga yoki adabiy asariga badiiylilik, eshituvchi yoki o'quvchiga lazzat bag'ishlaydi.

o'rgangan san'atlarini bir oz boyitadi va ularning yangi, ba'zan go'zalroq namunalari yaratadi, xolos. Masalani ravshanlashtirish uchun taxminiy va sodda bir misol keltiraylik.


Ayrim kishilarga, deylik, tajriba ko'rsatdiki, o'tin yaxshi yonishi uchun uni ma'lum tartibda qalash kerak ekan. Kishilar bu haqiqatni bir-biriga, ayniqsa, shu sohada tajribasi yo'q kishiga o'rgatishlari kerak bo'ladi. Shu fikrni har kim o'zicha til nuqtayi nazaridan to'g'ri gap tuzib ifodalay beradi. Hammamizga ma'lumki, bu fikrni juda ko'p variantda aytish mumkin. Shulardan birini olaylik, “Qalovini topsang, o'tin yaxshi yonadi”, deyish mumkin, ko'p martalab shunday deyilgan ham bo'lishi kerak. Shu gapda hech qanday kamchilik yo'q, chunki u til qoidalariga muvofiq tuzilgan va o'z vazifasini to'liq ado etadigan shakldadir. Biroq inson ta'bi bu bilan to'la ravishda qoniqmaydi. Uning ta'bidagi go'zallikka bo'lgan ehtiyoji shu gapni go'zallashtirishni talab qila boshlaydi. Bu bir yo'q buyumning oldin o'zini yasab, keyin uni chiroyli qilishga bo'lgan intilishning aynan o'zi. Shu talab bilan “o'tin” so'zini “qor” so'zi bilan almashtiradigan, “Qalovini topsang, qor yonar”, deydi. Shu bilan u mazkur gapga go'zal tus beradi. Eshitganlarga bu yoqadi. Kishi o'ziga yoqqan narsani yo'qotmaslikka harakat qiladi va xalq buni maqol qilib asrab yuradi.

Buni yoqimli, go'zal qilgan narsa, birinchidan, “qor” so'zining “qalov” so'ziga uyg'unligi, ya'ni tovushdoshligi, ikkinchidan, qorning olovga zidligi, uchinchidan, qor'rtirish, ya'ni mubolag'a borligidir. Yoshligidan tabiiy ravishda bunga o'xshash gaplar qulog'iga yoqib qolgan kishi beixtiyor shunday jumalarni yaratib boshlaydi.

Ana shundan keyingina bunga qiziqqan olimlar, bu hodisani tekshirib, uni sistemaga solib o't qo'ya boshlaydilar. Tovush tomonidan nazar solib, “qor” bilan “qalov” o'rtasidagi tovushdoshlikni, masalan,



Nutqni go'zal qiluvchi vosita “san'at” deb ataladi. San'atlar orasida “tavzi” deb atalgani bor. Bu misra yoki baytda tovushdosh so'zlardan foydalanishdir. Masalan, “Toqatim toq o'ldi, to bo'ldim talabgoring sening” degan misrada “i” tovushi bilan boshlangan “Toqatim”, “toq”, “to”, “talabgor” so'zlari berilgan. Mana shu “t”li so'zlarning bir misrada kelishi kishiga lazzat bag'ishlaydi.



Nutq san'atlari mohiyat e'tibori bilan til va nutqning o'zi singari ijtimoiydir. Nutq san'atlaridan mohirona foydalanuvchi so'z ustalarining asosiy manbai ham xalq nutqidir. So'z ustasi xalqdan va boshqa so'z ustalaridan o'rgangan san'atlarini bir oz boyitadi va ularning yangi, ba'zan go'zalroq namunalari yaratadi, xolos.

“Olma” bilan shakldoshligini o'ylab, shundan she'r yaratgan:

*Meva berdi yetilib bu yil
Men bog'imga o'tqazgan nihol.
Mevlarki, cho'g'day qip-qizil,
Husni yuqut, shirinlikda bol.
Lablaridan tomizib sharbat,
Ol, ye deydi, armonda qolma!
Lekin shunga hayronman faqat,
Nega uni deydilar “olma”?
Olma eksa bog'iga har kim,
Mehmoniga ol, ye demasmi?
“Olma” mening mehmondo'st xalqim —
Odatiga yot so'z emasmi?
Meva berdi yetilib bu yil
Men ardoqlab o'stirgan nihol.
Olmalarki, shafaqday qizil,
Lekin nomi “olma” emas, ol!*

So'z boshi va o'rtasidagi tovushdoshlik ham husn vositasi sifatida foydalaniladi. Erkin Vohidovning quyidagi she'riga quloq solsangiz, undagi hamda so'zlar “q” tovushi bilan boshlanganligi uchun alohida ohangdoshlik borligini sezasiz va shoirning mahoratidan zavqlanasiz:


*Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.
Qilur qatlimga qasd qayrab —
Qilich qotil qaroshing, qiz.
Qafasda qalb qushin qiy nab,
Qanot qoqmoqqa qo'y maynasan.
Qarab qo'ygil qiy o,
Qalbimni qizdirsin quyoshing, qiz.*

“Yosh” shakliga ega bo'lgan ko'z suvini, umrni va ko'k o'simlikni bildiradigan so'zlar bor. Ulug' shoirilarimizdan Lutfiy mana shu uchta shakldosh so'zdan foydalanib, tuyuq yasagan:

foydalanishlari mumkin ekan. Ammo shuni esdan chiqarmaslik kerakki, tovushdosh so'zlarni tanlab ishlatishda ma'noga zarar yetishi kerak emas. Ma'no birlamchiligini esdan chiqarmaslik lozim. Aks holda, notiq ko'rinishi bor deb sog'liqqa zararli kiyimlarni kiyadigan modaparast hukmda bo'ladi.

So'zlarning ma'no munosabati tovushdagiga nisbatan ancha murakkab bo'lib, bu o'y, fikrni talab qiladi. Buning sababi shundaki, tilning tovush jihati eshitish bilan cheklangan bo'lsa, uning ma'no jihati, birinchidan, eshitishdan o'zga hissiyotni, ikkinchidan, his qilib bo'lmaydigan narsalarni ham o'z ichiga oladi. Binobarin, tilning o'zga imkoniyatlari qatori badiiy imkoniyati ham umim ma'no jihati tovush jihatiga nisbatan ortiqdir. Bu imkoniyatning asosiy manbalari til birliklarining ko'p ma'noligi, ma'nodoshligi va yasallish qobiliyatidir.

Tilda mavjud so'z va yo'q shimchalar, birikma va gaplar faqat muayyan bir narsani bildirish bilan cheklanmaydi. Masalan, “lar” qo'shimchasini olsak, u ko'plikni bildirishi bilan birga hurmat va mubolag'ani bildirishi ham mumkin. “Ot” degan so'z ma'lum hayvonni bildirish uchun yasalgan bo'lsa ham, ba'zi hollarda boshqa narsalarga, hatto insonga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. So'zlarni turli munosabat bilan turli narsalarga qo'llash mumkin. Masalan, o'tkirligini nazarda tutib, tilni “tig'” desa bo'ladi, ayyorlikni e'tiborga olib, kishini “tulki” deb atasa bo'ladi, ravshanlikni hisobga olib, yuzni “quyosh” yoki “oy” deb atash joizdir. Bu holda biz bir narsani bildirish uchun yasalgan so'zni o'xshashlikka asosan boshqa narsani bildirish uchun foydalangan bo'lamiz. Taomni



Hozirgi vaqtda nutqda ko'p uchraydigan va yozuv bilan bog'liq bo'lgan ikki xil tanofur mavjud. Biri kattalar nutqida bo'lib, eski yozuvdagi harflarni to'g'ri o'qimaslik natijasida vujudga kelgan. Bu “keladi”ni “kelodi”, “kelgan”ni “kelgon” deb “a” o'rinda “o” talaffuz qilishdir.

Shunday qilib, ham shaklga, ham mazmunga asoslangan badiiy vositalarni vujudga keltirishda tilning imkoniyati cheksizdir. Bundan butun xalq foydalanadi, lekin biri ko'proq, biri ozroq. Ammo nom qo'yilgan va hali nom qo'yilmagan va mutaxassislar hanuz payqamagan ko'pdan ko'p nutq san'atlarining vujudga kelishida soqov bo'lmagan barcha kishilarning ishtiroki bor.

Nutq san'atlari mohiyat e'tibori bilan til va nutqning o'zi singari ijtimoiydir. Nutq san'atlaridan mohirona foydalanuvchi so'z ustalarining asosiy manbai ham xalq nutqidir. So'z ustasi xalqdan va boshqa so'z ustalaridan

“tavzi” deb ataydilar. “Olov” bilan “qor” orasidagi ziddiyatni “tazod” deb nomlaydilar va “qalov”ning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatishga “mubolag'a” deb ot qo'yadilar.

Shundan keyin o'qituvchilar xalqning o'zining ijodini uning o'ziga olimlar tavsiya qilgan, ilmiy shaklda yetkazadilar. Bu esa, shubhasiz, ko'pchilikning nutqqa ilmiy munosabatda bo'lishiga, uning rivojiga sabab bo'ladi. Olimga xalq, olim xalqqa xizmat qiladi.

Nutqda turli nuqsonlar yuz berishi mumkin. Nutq kamchiligi “ayr” deb ataladi. Ot qo'yilgan ayblardan biri tanofurdir. Nutqda

tovushlarning noqulay tartibda kelishiga “tanofur” deyiladi. Buning talaffuz jihatidan noqulay bo'lgan turidan nutq a'zolarining harakatini mukammallashtirish uchun ham foydalaniladi. “Laylak lakalaklamoqchi emish, lakalaklase ham lakalaklamoqchi emish, lakalaklamasa ham lakalaklamoqchi emish” yoki “Oq choynakka ko'k qopqoq, ko'k choynakka oq qopqoq” singari tez aytishlar shu maqsadda hosil qilingan san'iy tanofurlardir. Gapdagi tovushlar quloqqa yoqmaydigan va biror qabih so'zni yoki mavzuga zid ma'noni anglatadigan tartibda bo'lsa ham tanofur hosil bo'ladi.

Hozirgi vaqtda nutqda ko'p uchraydigan va yozuv bilan bog'liq bo'lgan ikki xil tanofur mavjud. Biri kattalar nutqida bo'lib, eski yozuvdagi harflarni to'g'ri o'qimaslik natijasida vujudga kelgan. Bu “keladi”ni “kelodi”, “kelgan”ni “kelgon” deb “a” o'rinda “o” talaffuz qilishdir. Ikkinchisi, yoshlar nutqida uchraydi va hozirgi imlomizning nomukammalligi, talaffuzga mos kelmaydigan qoidalarining mavjudligi tufayli paydo bo'lgan. Masalan, hozir ba'zi yoshlar “ishka”ni “ishga” deb, “kelipti”ni “kelibdi” deb, “ketkan”ni “ketgan”, “ochkan”ni “ochgan” deb aytadi. Hatto “boqqa”ni “bog'ga” deb talaffuz qiladilar. Bu aybning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan imlodagi kamchilik yo'qolmagunga qadar uning oldini olish o'qituvchilarimiz zimmasiga tushadi. Tilshunolarimiz esa til tabiatiga xilof qoida o'quvchi nutqida ayb paydo qilishni ham hisobga olishlari kerak.

Nutqni go'zal qiluvchi vosita “san'at” deb ataladi. San'atlar orasida “tavzi” deb atalgani bor. Bu misra yoki baytda tovushdosh so'zlardan foydalanishdir. Masalan, “Toqatim toq o'ldi, to bo'ldim talabgoring sening” degan misrada “i” tovushi bilan boshlangan “Toqatim”, “toq”, “to”, “talabgor” so'zlari berilgan. Mana shu “t”li so'zlarning bir misrada kelishi kishiga lazzat bag'ishlaydi. Bu misrada shoir talabgor so'zi o'rinda xaridor, “giriftor” yoki yana boshqa so'zni ishlatishi mumkin edi, lekin unda misraning ta'siri kamaygan bo'lardi. Qiyoslab ko'ring!

Toqatim toq o'ldi,
to bo'ldim xaridoring sening,
Toqatim toq o'ldi,
to bo'ldim talabgoring sening.

Agar shu misradagi toq so'zini ham “t”siz so'z bilan almashitirilsa: masalan, “Toqatim qolmadi to bo'ldim giriftoring sening” deysila, misra yana ham susayadi.

“Jahon jonon jamolingga tasadduq” degan misrada uchta “j” tovushi bilan boshlanadigan so'z qator kelgan. Shoir bir misrada uchta so'zni tovushdoshlashtirib bergan. Bu ham tavzi'ning yaxshi bir ko'rinishidir. Agar shu misradagi “jonon” so'zini “dilbar” yoki boshqa “j”siz so'z bilan almashitirib, masalan, “jahon dilbar jamolingga tasadduq” desak, ma'no buzilmaydi, lekin san'at yo'qoladi va misraning badiiy kuchi zaiflashadi. Tovushdoshlikning ma'no bilan singishib ketgan oliy namunalarini Navoiy asarlarida ko'rish mumkin. Masalan, shoir “Xamsa”ning Nizomiy Ganjaviy bag'ishlangan qismlarining birida:

Ganja ganjurikim chekib ko'p ranj,
Qo'yimish erdi jahonda besh ganj,
deydi. Bu baytda “ishtiqoq” deb atalgan san'at ham bor.

“Ishtiqoq” so'zining badiiy termin bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan so'z yasallishi ishtiqoq deyiladi. Shunga asosan, gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni “ishtiqoq” deb ataganlar. Biz bu hodisani o'zakdoshlik va uni vujudga keltirishni o'zakdoshlashtirish deb atasak ham bo'ladi. Lekin ishtiqoq so'zini yodimizdan chiqarmasak yaxshiroq bo'ladi. Demak, Navoiy mazkur baytda so'zlarni ham tovushlashtirgan, ham o'zakdoshlashtirgan. Bu baytda “ranj”, “ganj”, “jahon” so'zlari e'tibori bilan tovushdoshlik, “ganja”, “ganj” va “ganjur” so'zlari e'tibori bilan o'zakdoshlik bor. Chunki bularning hammasi xazina ma'nosidagi “ganj” o'zak so'zidan yasalgan. “Ganjur”ning ma'nosi “ganj” egasidir. Tavzi' va ishtiqoq san'atlari suvratga, ya'ni shakliga oid bo'lishiga qaramasdan, Navoiy qalamida uol ma'noga singib va ma'noni tasdiqlashga xizmat qilgan. Bunda Ganjaviyning Ganjda haqiqiy ganj egasi ekan va uning jahon ahamiyatiga ega bo'lgan besh ganjni qoldirganining haqiqatligi tovushdoshlik va o'zakdoshlik bilan ta'kidlangan. Natijada bayt juda mahkam baytga aylangan.

Bu ikki san'atdan jurnalistlarimiz ham foydalanmoqda. Masalan, “Toshkent oqshomi” gazetasida bosilgan bir maqolaning sarlavhasi “Sayyoralar sayri” deb berilgan edi. Bunda ishtiqoq bor.

Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

BUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-946.
34830 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi keltirilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhah: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilmiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy